



QASHQADARYO VILOYATI
CHIROQCHI TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

181200, Chiroqchi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 19-uy. Faks: (+99875)562-18-55, t.chiroqchi@exat.uz

2022 - yil 15 - dekabr

664-4-66-Q/22

Chiroqchi tuman hokimligi

**Chiroqchi tumanida 2023-yilda transport vositalarini majburiy texnik
ko'rikdan o'tkazish to'g'risida**

O'zbekistan Respublikasining "Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida"gi Qonuni 17-moddasi hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-son qarori bilan tasdiqlangan "Transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizomga (keyingi o'rinlarda – Nizom) muvofiq, transport vositalarining 2023-yilda majburiy texnik ko'rigini tashkil qilish maqsadida, O'zbekistan Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonuni 6 va 25-moddalariga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Mulkchilik shaklidan qat'iy nazar tuman hududidagi jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan transport vositalari majburiy texnik ko'rikdan o'tkazilsin.

2. Transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish bo'yicha tuman komissiyasi tarkibi 1-ilovaga, jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan transport vositalarining 2023-yilgi majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Transport vositalari qo'yidagi davriylikka muvofiq texnik ko'rikdan o'tkazilsin:

tijorat asosida yo'lovchilar tashish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va o'rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo'lgan (haydovchi o'rinig'idan tashqari), odamlarni muntazam

tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari bir yilda ikki marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning [ikkinchi xatboshisida](#) ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) ikki yilda bir marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan, shuningdek ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning [ikkinchi xatboshisida](#) ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) bir yilda bir marta;

tirkamalar texnik ko‘rikka transport vositasi shatakchi uchun belgilangan muddatlarda;

navbatdagi texnik ko‘rikdan o‘tkazishning ilgari o‘rnatilgan muddatlaridan qat’i nazar, ularni Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati (keyingi o‘rinlarda - DYHXX) organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish (qayta ro‘yxatdan o‘tkazish) vaqtida (birinchi marta ro‘yxatga olinayotgan yangi transport vositalari bundan mustasno).

4. Mazkur qarorning 3-bandi [ikkinchi xatboshisida](#) ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marta – 1-mart - 30-iyunda;

ikkinchi marta – 1-sentabr - 31-oktabrda o‘tkaziladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko‘rigi 1-yanvardan 31-dekabrgacha o‘tkaziladi.

5. Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tuman komissiyasi rahbariga transport vositalarining texnik ko‘rikdan o‘tkazishda:

transport vositasini ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi guvohnomada (texnik pasportda, texnik talonda) ko‘rsatilgan ma’lumotlarga transport vositasi turi, markasi, modeli, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish raqami belgilari, shassi (rama), kuzov va dvigatelining identifikatsiyalash raqamlari muvofiqligi;

transport vositasining texnik holati va jihozlari texnik reglamentlar, standartlar talablariga, yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari va normalariga muvofiqligi;

maxsus va tezkor xizmatlarning transport vositalarida maxsus rangli va

ovozli signallar qurilmalarining mavjudligi, sozligi va qonuniyligi, shuningdek, transport vositasining rang-grafik bo'yash sxemalarining texnik reglamentlar yoki standartlar talablariga muvofiqligi;

gaz yonilg'isida ishlash uchun qayta jihozlangan transport vositalarini texnik ko'rikdan o'tkazishda gaz ballonlarining foydalanish muddati, ishlab chiqarilgan yili, zavod raqami, gaz ballonlarini sinovdan o'tkazish muddatlari, gaz balloni anjomlarining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirilishini ta'minlasin.

6. Transport vositalarining majburiy texnik ko'rigi DYHXX organlari hamda tadbirkorlik sub'ektlari – yuridik shaxslar tomonidan Nizomga muvofiq o'tkaziladi hamda tegishli yig'im undiriladi.

Transport vositalarining texnik holati va uskunalarining muvofiqligini baholash uchun DYHXX organlari tomonidan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning texnika bazalari, shuningdek, xususiy texnik xizmat ko'rsatish stansiyalari shartnoma asosida jalb etilishi mumkin.

Jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan M1 toifadagi transport vositalari faqat tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan texnik ko'rikdan o'tkaziladi.

7. Tumandagi barcha transport vositalari egalari bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslarga texnik ko'rikdan o'tkazish jadvali asosida transport vositalarini texnik jihatdan sozligini o'z vaqtida texnik ko'rikdan o'tkazish majburiyati yuklatilsin.

8. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi "Transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash to'g'risida" 125-son qarori 3-bandiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati harbiy bo'linmalarining transport vositalari mazkur idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik ko'rikdan o'tkazilishi inobatga olinsin.

9. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan tuman hokimining 2021-yil 14-dekabrdagi "Tumanda 2022-yilda transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish to'g'risida" 628-4-66-Q/21-son qarori 2022-yil 31-dekabrdan o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

10. Ushbu qaror 2023-yil 1-yanvardan e'tiboran kuchga kiradi.

11. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari B.Norqobilov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



N.Erkayev

Chiroqchi tuman hokimining
2022 yil 15 dekabrda
664-4-66-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Tumanda transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan

o'tkazish bo'yicha tuman komissiyasi

T A R K I B I

KOMISSIYA RAISI :

Jovliyev Oybek

Chiroqchi tuman ichki ishlar bo'limi Yo'l harakati
xavfsizligi bo'limi boshlig'i

Komissiya a'zolari:

T.Mo'minov

-

Qashqadaryo viloyati transport boshqarmasi sektor
mudiri

Lavozimiga ko'ra

-

Tuman Mudofaa ishlari bo'limi texnik xodimi

I.Boboev

-

tuman Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish
bo'limi boshlig'i

Komissiya kotibi:

O.Melikov

-

Tuman Ichki ishlar bo'limi YHXB katta inspektori

Chiroqchi tuman hokimining
2022 yil 15 dekabrda
664-4-66-Q/22-son qaroriga
2-ilova

**Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan avtotransport vositalarining
2023-yilda majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish**

J A D V A L I

№	Tashkilot, korxona, xo'jalik va muassasalar nomi	Texnik ko'rik o'tkazish kunlari	Texnik ko'rik o'tkazish vaqti	Texnik ko'rik o'tkaziladigan joy	Transport vositasi soni
1	“Binokor” MChJ	01.03-03.03. 2022	8:00-17:00	Avtosaroy	29
2	“Chaqmoq quruvchi uy- joy ta'mirlash” IChK	04.03.2022	8:00-17:00	“Kamron Avtotex xizmat” xususiy firmasi binosi	2
3	“Choshtepa chashmasi” firmasi	06.03.2022	8:00-17:00	“Kamron Avtotex xizmat” xususiy firmasi binosi	1
4	“Dolga plus” MCHJ	07.03.2022	8:00-17:00	“Kamron Avtotex xizmat” xususiy firmasi binosi	1
5	“Do'stlik” MCHJ	09.03.2022	8:00-17:00	“Kamron Avtotex xizmat” xususiy firmasi binosi	1
6	“Jo'ra hukmdor” XK	09.03.2022	8:00-17:00	“Kamron Avtotex xizmat” xususiy firmasi binosi	1
7	“Alvon qatlam” MCHJ	10.03.2022	8:00-17:00	“Kamron Avtotex xizmat” xususiy firmasi binosi	1
8	“Saxro trans servis” MCHJ	11.03.2022	8:00-17:00	“Kamron Avtotex xizmat” xususiy firmasi binosi	4
9	“Asida Zokirovna” XK	13.03.2022	8:00-17:00	“Kamron Avtotex xizmat” xususiy firmasi binosi	1
10	“Chiroqchi dala shpatili kvars” xususiy korxonasi	14.03.2022	8:00-17:00	“Kamron Avtotex xizmat” xususiy firmasi binosi	1
11	“Chiroqchi ishlab chiqarish moddiy texnika ta'minot savdo birlashmasi” xususiy korxonasi	15.03.2022	8:00-17:00	“Kamron Avtotex xizmat” xususiy firmasi binosi	3

12	“Do‘stlik” MCHJ	16.03.2022	8:00-17:00	“Trans agent elite” MCHJ binosi	4
13	“Maxmatkarim” FX	17.03.2022	8:00-17:00	“Trans agent elite” MCHJ binosi	1
14	“Olim o‘g‘li Jasur” xususiy firmasi	18.03.2022	8:00-17:00	“Trans agent elite” MCHJ binosi	1
15	“Beshchashma quruvchi” MCHJ	20.03.2022	8:00-17:00	“Trans agent elite” MCHJ binosi	1
16	“Muborakavtotex trans” MCHJ	27.03.2022	8:00-17:00	“Trans agent elite” MCHJ binosi	1
17	“Stat oil” MCHJ	28.03.2022	8:00-17:00	“Trans agent elite” MCHJ binosi	4
18	“Safar trans plus” MCHJ	29.03.2022	8:00-17:00	“Trans agent elite” MCHJ binosi	1
19	“Saralangan qum keramikasi” XK	30.03.2022	8:00-17:00	“Trans agent elite” MCHJ binosi	1
20	Chiroqchi tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi	31.03.2022	8:00-17:00	“Trans agent elite” MCHJ binosi	1
21	Eski Anxor irrigatsiya tizimi	16.04.2022	8:00-15:00	“Trans agent elite” MCHJ binosi	8
22	Chiroqchi tuman Sanitariya epidimiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi markazi	17.04.2022	8:00-16:00	“Trans agent elite” MCHJ binosi	3
23	Chiroqchi tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi	19.04-22.04. 2022	9:00-15:00	Avtosaroy	16
24	Vatanparvar tashkiloti	23.04-24.04. 2022	8:00-16:00	Avtosaroy	13
25	Chiroqchi tuman davlat soliq inspeksiyasi	27.04.2022	9:00-15:00	“Kamron Avtotex xizmat” xususiy firmasi binosi	1
26	4-sonli kasb-hunar maktabi	28.04.2022	8:00-13:00	Avtosaroy	18
27	2-sonli kasb-hunar maktabi	29.04.2022	9:00-16:00	“Trans agent elite” MCHJ binosi	3
28	Chiroqchi tuman hokimligi	30.04.2022	8:00-17:00	“Trans agent elite” MCHJ binosi	4
29	Chiroqchi tuman Moliya bo‘limi	06.05.2022	8:00-17:00	“Trans agent elite” MCHJ binosi	1
30	ATB Xalq banki tuman filiali	07.05.2022	8:00-16:00	“Trans agent elite” MCHJ binosi	7
31	Chiroqchi tuman Xalq ta’limi bo‘limi	22.05.2022	8:00-17:00	“Trans agent elite” MCHJ binosi	1

32	Chiroqchi tuman Elektr ta'minoti korxonasi	25.05.2022	8:00-16:00	"Kamron Avtotex xizmat" xususiy firmasi binosi	5
33	Chiroqchi tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	26.05.2022	9:00-15:00	"Kamron Avtotex xizmat" xususiy firmasi binosi	5
34	Toza hudud DUK Chiroqchi tuman filiali	27.05.2022	8:00-17:00	"Kamron Avtotex xizmat" xususiy firmasi binosi	11
35	ATB Agrobank Chiroqchi filiali	30.06.2022	8:00-17:00	"Kamron Avtotex xizmat" xususiy firmasi binosi	1